



IPO ORQALI MABLAG'LAR JALB QILISHDA XORIJY TAJRIBALAR: AQSH, GERMANIYA VA YAPONIYANING AMALIY YONDASHUVLARI

Abdurasulov Azizbek Ulug‘bek o‘g‘li
Bank-moliya akademiyasi magistranti.

Annotatsiya. Maqolada IPO orqali mablag‘ jalb qilishning xalqaro tajribalar – AQSh, Germaniya va Yaponiyada qo‘llaniladigan asosiy yondashuvlar o‘rganilgan. Ushbu mamlakatlarning IPO bozoridagi afzalliklari va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari IPOning uzoq muddatli moliyalashtirishdagi o‘rni va bank sektorini rivojlanishdagi ahamiyatini asoslab beradi. Shu bilan birga, “Hamkorbank” ATB misolida IPOga tayyorgarlik jarayonining amaliy natijalari va xalqaro tajribalarning qo‘llanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: IPO, uzoq muddatli moliyalashtirish, bank sektori, xalqaro tajriba, AQSh, Germaniya, Yaponiya, shaffoflik.

Kirish

Bugungi kunda dunyo moliya bozorlarida IPO (birlamchi ommaviy taklif) vositalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. IPO kompaniyalar va banklar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishning samarali vositasi bo‘lib, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi. Xorijiy mamlakatlar, xususan AQSh, Germaniya va Yaponiyada IPO jarayonlari yetarlicha rivojlanib, milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida IPO jarayonlari yangi bosqichga o‘tmoqda va milliy banklar uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbai sifatida qiziqish uyg‘otmoqda.



Bu jarayonning dolzarbliji “Hamkorbank” ATB misolida yaqqol ko‘rinmoqda. Bankning so‘nggi yillarda erishgan moliyaviy natijalari – umumiyligi aktivlar hajmi, sof foyda va kapital yetarliligi kabi ko‘rsatkichlarning barqaror o‘sishi IPO asosida mablag‘lar jalb qilish uchun qulay zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kuchayishi va ichki boshqaruv tizimining xalqaro standartlarga moslashtirilishi O‘zbekistonning IPO bozorini rivojlantirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Shu bois, ushbu maqolada AQSh, Germaniya va Yaponiyaning IPO jarayonidagi tajribalari tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Bu esa nafaqat milliy bank sektorining barqarorligini ta’minlash, balki xalqaro moliya bozorlariga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga ham hissa qo‘shadi.

Metodologiya

Maqolada AQShning SEC (2023), Germaniyaning BaFin (2023) va Yaponiyaning JPX (2023) hisobotlari, shuningdek, “Hamkorbank” ATBning yillik hisobotlari (2020–2023) asosida qiyosiy tahlil metodi qo‘llangan. Shuningdek, SWOT-tahlil asosida xorijiy tajribalarning ustunliklari va cheklovlar umumlashtirilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijalari AQSh, Germaniya va Yaponiyaning IPO orqali mablag‘lar jalb qilish bo‘yicha amaliy yondashuvlarini tahlil qilish asosida shakllandi. AQSh tajribasida IPO mablag‘larining asosiy manbai institutsional investorlar bo‘lib, 2023-yilda 107 ta IPO orqali umumiyligi \$19,4 milliard mablag‘ jalb qilindi. Bu jarayonda BlackRock va Vanguard kabi yirik investitsiya fondlari

70–80% ulush bilan faol ishtirok etgani ushbu bozorning yuqori likvidligi va barqarorligini ta'minladi. Shu bilan birga, AQSh Qimmatli qog'ozlar va birja komissiyasi (SEC) IPO jarayonini shaffoflik va hisobdorlik talablariga qat'iy amal qilish orqali nazorat qilib bordi.

Germaniyada IPO mablag'larining 60–70% qismini sug'urta kompaniyalari va banklar kabi institutsional investorlar ta'minladi. 2023-yilda Germaniya bozorida umumiy IPO hajmi 2,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. BaFin (Federal moliyaviy nazorat boshqarmasi) tomonidan ishlab chiqilgan qat'iy moliyaviy nazorat tizimi Germaniya bozorining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, Germaniyada IPO mablag'larining asosiy qismi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va raqamli loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Yaponiyada esa 2023-yilda 96 ta IPO amalga oshirilib, umumiy IPO hajmi 1,6 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. NISA dasturi orqali chakana investorlarni jalg qilish mexanizmlari bu bozorda diversifikatsiyani oshirishga xizmat qildi. Yaponianing Moliya xizmatlari agentligi (FSA) IPO jarayonini muntazam nazorat qilib borib, shaffoflik va investorlarni himoya qilish choralarini kuchaytirdi.

O'zbekiston sharoitida esa "Hamkorbank" ATBning 2020–2023 yillardagi moliyaviy natijalari IPOga tayyorgarlikning asosiy poydevorini yaratdi. Jumladan, bankning umumiy aktivlari 2020-yilda 7,2 trillion so'mdan 2023-yilda 20,98 trillion so'mga oshgan bo'lsa, sof foyda shu davrda 375,1 milliard so'mdan 1 200,2 milliard so'mga yetgan. Bankning kapital yetarlilik koefitsienti 2020-yildagi 25,4% dan 2023-yilda 43,05% ga oshib, investorlar uchun jozibadorlikni yanada kuchaytirgan. Shu bilan birga, 2024-yilda EBTB bilan tuzilgan 20 million AQSh

dollari hajmidagi uzoq muddatli kredit shartnomasi “Hamkorbank” ATBning IPO jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorijiy tajribalar O'zbekistonning IPO bozorini rivojlantirishda shaffoflik, institutsional investorlar bazasini kengaytirish va xalqaro moliya institatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash muhimligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, “Hamkorbank” ATBning moliyaviy natijalari milliy bank sektorida IPO asosida uzoq muddatli moliyalashtirishni amalga oshirish uchun real imkoniyatlar mavjudligini isbotlab berdi.

Munozara

Munozara bo'limida tadqiqot natijalari asosida IPO orqali mablag'lar jalb qilishning O'zbekiston bank sektoridagi amaliy ahamiyati va xorijiy tajribalarning qo'llanilishi muhokama qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, AQShda IPO orqali mablag'lar jalb qilishning asosiy ustunligi – yirik institutsional investorlarning faol ishtiroki va qat'iy nazorat tizimlari orqali shaffoflikning ta'minlanishi hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda AQSh bozorida \$19,4 milliard mablag' jalb qilinib, bu mablag'larning katta qismi innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan. BlackRock va Vanguard kabi yirik investitsiya fondlarining 70–80% ulushi IPO jarayonining barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Germaniya misolida esa IPO jarayonida sug'urta kompaniyalari va yirik banklar asosiy moliyalashtiruvchi sifatida qatnashgan bo'lsa, Germaniyada BaFin tomonidan ta'minlangan nazorat tizimi IPO mablag'larining samarali ishlatalishini kafolatladi. Shu bilan birga, Germaniyada 2023-yilda IPO orqali 2,1 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilingan bo'lib, bu mablag'larning asosiy qismi ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.



Yaponiyada IPO jarayonida chakana investorlarning ishtiroki NISA dasturi orqali rag'batlantirilgan. Bu dastur chakana investorlarning IPO bozoriga faol kirishini ta'minlab, 2023-yilda 96 ta IPO bitimi orqali 1,6 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, Yaponiya moliya xizmatlari agentligi (FSA) tomonidan amalga oshirilgan qat'iy nazorat IPO mablag'larining shaffof ishlatilishini ta'minlashga yordam berdi.

O'zbekiston sharoitida esa "Hamkorbank" ATBning moliyaviy natijalari va xalqaro moliya institatlari bilan hamkorligi IPO bozorini rivojlantirish bo'yicha muhim tajriba sifatida qaralmoqda. Bankning umumiy aktivlarining 2020-yildagi 7,2 trillion so'mdan 2023-yilda 20,98 trillion so'mga oshgani, sof foydaning 375,1 milliard so'mdan 1 200,2 milliard so'mga yetgani amaliy jihatdan IPOga tayyorgarlikning muhim bosqichlari hisoblanadi. Shu bilan birga, 2024-yilda EBTB bilan tuzilgan 20 million AQSh dollari hajmidagi bitim IPO orqali mablag' jalb qilish jarayonining asosiy tayanch manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston uchun IPO jarayonida investorlar ishonchini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va xorijiy tajribalarni moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, milliy moliya bozorining rivojlanishida institutsional investorlar bazasini kengaytirish va xalqaro moliya institatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish IPO jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim shart hisoblanadi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishini jadallashtirish va bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa



Xulosa sifatida aytish mumkinki, IPO asosida mablag'lar jalb qilish O'zbekistonning bank sektorida uzoq muddatli moliyalashtirishning samarali va barqaror manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. AQSh, Germaniya va Yaponiyaning amaliy tajribalari shuni ko'rsatadiki, IPO jarayoni yirik institutsional investorlar ishtiroki, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish orqali moliya bozorini rivojlantirishga yordam beradi. "Hamkorbank" ATB misolida olib borilgan tadqiqot bankning ichki boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xalqaro moliya institatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va IPO mablag'larini samarali boshqarish imkoniyatlarini aniq ko'rsatdi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar milliy IPO bozorini rivojlantirish va O'zbekistonning global moliya bozorlariga integratsiya qilinishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, IPO asosidagi uzoq muddatli moliyalashtirish O'zbekistonning moliyaviy tizimini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Securities and Exchange Commission (SEC). Annual Report 2023. – Washington, 2023. – URL: <https://www.sec.gov/about/reports/annual-reports> (foydalanilgan vaqt: 25.05.2025).
2. BaFin. Annual Report 2023. – Berlin, 2023. – URL: <https://www.bafin.de> (foydalanilgan vaqt: 25.05.2025).
3. Japan Exchange Group (JPX). Market Review 2023. – Tokyo, 2023. – URL: <https://www.jpx.co.jp/english/> (foydalanilgan vaqt: 25.05.2025).

ZAMONAVIY MENEGMENT VA IQTISODIYOTNING ILMIY VA AMALIY MUAMMOLARI

XII-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2025)

Available at www.uznauka.uz



4. Hamkorbank ATB. Yillik hisobotlar (2020–2023). – Andijon, 2023. –

URL: <https://hamkorbank.uz> (foydalanilgan vaqt: 25.05.2025).